



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2025. Issue 4

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



**Maktabgacha ta'lim uslubchisining metodik ishlarga rahbarligi****Tairova Madinabonu Baxtiyarovna**

Andijon davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası Phd (DcS) professor v.b

Abdullayeva Kamola Erkin qizi**Sirojiddinova Xamidaxon Xasanboy qizi**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta'lim) magistratura 2-bosqich talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotida uslubchining metodik ishlarga rahbarligi, uning kasbiy vazifalari, pedagoglar bilan olib boriladigan ilmiy-uslubiy faoliyat mazmuni, innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlari hamda metodik jarayonning samaradorligini ta'minlash bo'yicha nazariy va amaliy jihatlar yoritilgan. Tadqiqotda kuzatuv, hujjatlar tahlili, qiyosiy tahlil va suhbat metodlari qo'llanilgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, uslubchining metodik faoliyatni puxta rejalashtirishi, monitoringni samarali tashkil etishi va pedagoglarning kasbiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashi maktabgacha ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, uslubchining innovatsion yondashuvi tarbiyachilarning metodik tayyorgarligini 20–30 foizgacha oshirishi aniqlangan. Maqolada uslubchining zamonaviy kompetensiyalari, faoliyat yo'nalishlari hamda samaradorlikka erishish omillari ilmiy asosda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, uslubchi, metodik rahbarlik, pedagog kompetensiyasi, innovatsion texnologiyalar, ta'lim sifati, metodik jarayon, monitoring, metodik xizmat.

Abstract: This article covers the theoretical and practical aspects of the methodological work of a methodologist in a preschool educational organization, his professional duties, the content of scientific and methodological activities with teachers, mechanisms for introducing innovations, and ensuring the effectiveness of the methodological process. The research used observation, document analysis, comparative analysis, and interview methods. The results showed that the methodologist's careful planning of methodological activities, effective organization of monitoring, and support for the professional development of teachers directly affect the quality of preschool education. In particular, it was found that the innovative approach of the methodologist increases the methodological training of educators by 20–30 percent. The article analyzes the modern competencies of the methodologist, areas of activity, and factors for achieving effectiveness on a scientific basis.

Keywords: preschool education, methodologist, methodological leadership, pedagogical competence, innovative technologies, quality of education, methodological process, monitoring, methodological service.





Аннотация: В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты методической работы методиста в дошкольной образовательной организации, его профессиональные обязанности, содержание научно-методической работы с педагогами, механизмы внедрения инноваций и обеспечения эффективности методического процесса. В исследовании использовались методы наблюдения, анализа документов, сравнительного анализа и интервьюирования. Результаты показали, что тщательное планирование методической деятельности методистом, эффективная организация мониторинга и поддержка профессионального развития педагогов напрямую влияют на качество дошкольного образования. В частности, установлено, что инновационный подход методиста повышает методическую подготовку воспитателей на 20–30 процентов. В статье на научной основе анализируются современные компетенции методиста, направления его деятельности и факторы достижения эффективности.

Ключевые слова: дошкольное образование, методист, методическое руководство, педагогическая компетентность, инновационные технологии, качество образования, методический процесс, мониторинг, методическая служба.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tizimi bugungi kunda jamiyatning eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ta'lim sifatini oshirish, bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, tarbiyachilarning kasbiy mahoratini kuchaytirish jarayonida uslubchining o'рни nihoyatda muhimdir. Maktabgacha ta'lim uslubchisi – bu metodik jarayonlarni boshqaruvchi, ta'limiy faoliyatni nazorat qiluvchi, pedagoglarga ilmiy-metodik yordam beruvchi va ta'lim jarayonining sifat ko'rsatkichlarini oshiruvchi yetakchi mutaxassis hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik jarayonning rivojlanishi, kompetensiyaga asoslangan yondashuvlarning kengayishi, raqamli metodik vositalar joriy etilishi, inklyuziv ta'limning faol qo'llanilishi uslubchining mas'uliyatini yanada oshirmoqda. Shu bois maktabgacha ta'lim tashkilotlarida metodik ishlarga rahbarlikning ilmiy asoslangan mexanizmlarini o'rganish dolzarb sanaladi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining metodik rahbarlik faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil qilish, uning samaradorligini oshiruvchi omillarni aniqlash va amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID METODLAR VA TAHLILLAR

➤ Hujjatlar tahlili

- “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari”

- Maktabgacha ta'lim to'g'risidagi nizom





- O'zbekiston va xorijiy davlatlarning metodik xizmat modellarini o'rganish.

➤ Kuzatuv

10 ta maktabgacha ta'lim tashkilotida uslubchining metodik ishlarni tashkil etish jarayoni kuzatildi, jumladan:

- a) seminarlar,
- b) pedagogik kengashlar,
- c) ochiq mashg'ulotlar

➤ Suhbat

35 nafar tarbiyachi hamda 10 nafar uslubchi bilan yarim strukturalangan suhbat o'tkazildi.

➤ Qiyosiy tahlil

-Finlandiya,

-Janubiy Koreya,

-Estoniya va Singapur maktabgacha ta'lim tizimlaridagi metodik rahbarlik modeli bilan o'zimizdagi tizim taqqoslandi.

➤ Analitik yondashuv.

Olingan natijalar taqqoslanib, uslubchining samarali metodik rahbarligini belgilovchi mezonlar asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Uslubchi faqat yaxshi nazariy tayyorgarlikkagina emas, balki bilimlarni amalda qo'llash ko'nikmasiga ham ega bulishi zarur. Tajribali uslubchining tashabbuskorligi va ishga ijodiy yondoshishi: g'oyalarini umumlashtira bilish, maqsadga muvofiq ishlash, har bir tarbiyachining imkoniyat va qobiliyatlarini hisobga olishiga qarab farqlanadi.

Uslubchi talablarni qo'yishda talabchan va qat'iy bo'lishi kerak. Rahbarning o'ziga buysinuvchilar bilan muloqotning emotsional-irodaviy tomonini ifodolovchi bu sifatlar rahbarlik uslubining muhim hislatini, talabchanlikni hosil qiladi. Yuksak talabchanlikni sezgirlik, xayrixoxlik, odamlarga hurmat bilan birga olib borish zarur.

Talabchanlik - bu qattiqqo'llik degan gap emas. Buyruqlar, qattiq tanbehlar, xayfsanlarning foydasidan ko'ra zarari ko'proq va bu odatda rahbarning kuchliligidan emas, balki zaifligidan dalolat beradi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchisining ta'lim-tarbiyaviy faoliyatining samaradorligi uning obrusi ko'p jihatdan pedagoglar jamoaning jipslashganligiga, eng avvalo butun maktabgacha muassasa rahbar yadrosida birlik va o'zaro tushunishning mavjudligiga bog'liq bo'ladi.

Tarbiyachilarning aniq intizomi va ishda uyushqoqligini ta'minlash; jamoada jamoa fikrini, tarbiyachilarning bir-birlarining kamchiliklariga tanqidiy munosabatini shakllantirish, mehnat faolligi va ijodiy ishlash





ehtiyojini rag'batlantirish; qabul qilingan qarorlar yechimini ta'minlash kabi ijtimoiypsixologik masalalarini hal qilish uslubchi uchun birmuncha murakkablik qiladi. Har bir yosh mutaxassis ishini endi boshlayotgan yosh tarbiyachi maslaxatlar olib turishi uchun unga tajribaliroq murabbiy va obro'liroq tarbiyachini biriktirish lozim. Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi butun metodik ishning markazi pedagogika kabinetidir. Metodika jarayonni uyushtirish, ota-onalar bilan ishlash, pedagogik mahoratlarini oshirish va mustaqil o'qishlarini tashkil qilishda tarbiyachilarga amaliy yordam ko'rsatishdagi yetakchi rol pedagogika kabineti zimmasidadir. Metodika kabineti maktabgacha ta'lim tashkiloti an'analari jamg'ariladigan joydir. Uslubchining vazifasi jamg'arilgan tajribaga «jon ato qilib» tushunarli qilish, tarbiyachilarni bolalar bilan ishlashda ularni ijodiy qo'llashga o'rgatishdir. Metodika kabinetida to'g'ri yo'lga qo'yilgan ish barcha xodimlarning metodik tayorgarligini oshirishga, xususan, bolalarni har tomonlama rivojlantirish vazifalarini hal qilishga yordam beradi.

Metodika kabinetining asosiy vazifasi maktabgacha ta'lim tashkilotitarbiyachilariga metodik yordam ko'rsatish, ularning g'oyaviy-siyosiy va ilmiymetodik saviyalarining, pedagogik mahoratlarining o'sishi uchun sharoit yaratishdir. maktabgacha ta'lim muassasalardagi pedagogika kabineti, shuningdek, ilg'or pedagogik tajriba to'planadigan, umumlashtiriladigan va tarqatadigan boshlang'ich markaz hamdir. Kabinetning muhim vazifalaridan biri tarbiyachilarga o'z mehnatlarini ilmiy asosda tashkil qilishlarida yordam ko'rsatishdir.

Metodika kabineti bu vazifalarni hal etishi uchun uslubchi kabinetdagi materiallar mazmuniga oshirilgan talablar qo'yishi, uni tizimlashtirish va puxta o'ylab chiqishi kerak. Metodika kabinetida tarbiyachilarni kabinetda mavjud materiallar bilan tanishtirish, yaxshi tajribani tashviqot qilish va yoyish maqsadida «axborot xizmati» uyushtiriladi. Axborot xizmati xilma-xil axborot byulletenlari, bolalar ta'limi va tarbiyasiga doir ayrim masalalar bo'yicha «axborot kunlari», yangi kitoblar annotatsiyasi havolasi bilan «Metodik adabiyotlar yangiliklari», «Tajriba, muammo, amaliyot», «Metodik burchak» stendlari va hokazolar bo'lishi mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalar xodimlarining nutq madaniyatini doimo takomillashtirib borish maqsadida kabinetda hammaga zarur kitoblar o'rin oladi. Metodika kabinetning butun ishi u maktabgacha ta'lim muassasalar metodik ishining markaziga aylanadigan qilib tuzilishi kerak. Tarbiyachilarga kabinet xizmatidan foydalanishni, unda saqlanayotgan materiallar bilan qiziqishi, o'rganish kerak. Bu sezilarli darajada maktabgacha ta'lim tashkiloti uslubchiining mahoratiga, tashkilotchilik qobiliyatlariga bog'liq bo'ladi

XULOSA. Uslubchining pedagoglar bilan tizimli hamkorligi ta'lim jarayonida professional o'sish, ijodkorlik va yangilikka intilish muhitini shakllantiradi, bu esa muassasaning umumiy rivojlanish sur'atlarini





tezlashtiradi. Metodik rahbarlikning puxta yo'lga qo'yilishi bolalar ta'lim-tarbiyasida uzluksizlik va yaxlitlik tamoyillarini ta'minlab, rivojlanish jarayonining barqarorligini kafolatlaydi. Uslubchi tomonidan innovatsion metodlarni tatbiq etish pedagoglarning amaliy faoliyatini samarali tashkil etish bilan birga, bolalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni kuchaytiradi.

Ilmiy-metodik yondashuv asosida shakllantirilgan ichki monitoring tizimi ta'lim sifati bo'yicha aniq ko'rsatkichlarni belgilab, muassasaning strategik rivojlanish yo'nalishlarini asoslashga xizmat qiladi.

Zamonaviy kompetensiyalarga ega uslubchi metodik xizmatning yuragi sifatida faoliyat yuritib, muassasa jamoasining bir butun maqsad sari harakatini yo'naltiradi hamda ta'lim sifatining milliy va xalqaro talablar darajasiga ko'tarilishiga zamin yaratadi. Shunday qilib, uslubchining metodik ishlarga rahbarligi – bu faqat tashkiliy jarayon emas, balki maktabgacha ta'limning sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi strategik boshqaruv mexanizmi hisoblanadi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Maktabgacha ta'lim tizimini yana-da takomillashtirish to'g'risida" PQ-4312-son qarori.
2. "Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari", 2022.
3. Maktabgacha ta'lim vazirligi. "Metodik xizmat faoliyatini tashkil etish bo'yicha qo'llanma", Toshkent, 2021y 18-23b
4. Barbara P. (2019). Early Childhood Education Leadership and Pedagogy. Oxford University Press. C 125-128
5. Salo, P. & Lerkkanen, M-K. (2020). Pedagogical leadership in Finnish early childhood education. C 64-76
6. Korea Institute of Childcare and Education (KICE). Early Childhood Education Standards, 2020. C 14-19
7. Moyle, K. (2022). Digital Pedagogies in Early Learning. Springer. C 43-45
8. O'rinboyeva, D. (2021). Maktabgacha ta'limda pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Fan nashriyoti.
9. UNESCO. (2023). Quality Early Childhood Education Guidelines. C 28-33

